

**AUDITOR ISHI SIFATINI NAZORAT QILISHDA AUDITORLIK STANDARTLARINING UYG'UNLIGI.**

**Turumova Dildora Abdumannonovna**

*Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası  
o'qituvchisi*

[dildoraturumova1985@gmail.com](mailto:dildoraturumova1985@gmail.com)

**Primqulova Zarina Furqat qizi**

*Jizzax politexnika instituti talabasi*

[primqulovazarina28@gmail.com](mailto:primqulovazarina28@gmail.com)

**Anotatsiya:** *Maqolada auditni o'tkazish jarayonida auditor ishi sifatini nazorat qilish omillari, mezonlari, shakllari va tekshirish amallarini tahlil etilib, tegishli tavsiyalar berilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *auditorlik tashkiloti, auditor ishi, xalqaro audit standarti, milliy standart, me'yoriy hujjatlar, ob'ektivlik, sifat standarti, litsenziyalash, nazorat shakli, auditor, kasbiy daraja, majburiyat, mijoz.*

O'zbekiston Respublikasida audit xizmati sifatini nazorat qilish davlat darajasida tashkil etilgan. Hozirgi kunda audit faoliyatini tashkil etishga qaratilgan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-615 sonli 04.04.2007 yildagi «Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida»gi Qarori, AMS, auditor va audit tashkilotlariga qo'yilgan talablarni aks ettiruvchi bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Auditor ishi sifatining nazorat uslubiyotini tashkil etishda auditorlik tashkiloti standartlariga tayanish lozim. Amaliyotda «Auditda ish sifatining nazorati» nomli 220-xalqaro audit standarti (XAS-220) va «Auditor ishining sifatini nazorat qilish» nomli 5-son audit milliy standarti (AMS) belgilangan. Unda berilgan ta'rif bo'yicha «Auditor ishi sifatini nazorat qilish auditning o'tkazilishi va auditga turdosh matnlarning ko'rsatilishi chog'ida audit standartlarining va O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga solib turuvchi boshqa xil me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etilishini tekshirish uchun foydalaniladigan tashkiliy choralar, uslublar va jarayonlar tizimini o'z ichiga oladi».

Auditor ishi sifatini umumiy nazorat qilish auditorlarning ma'lum shaxsiy xususiyatlariga (halollik, obektivlik, mustaqillik, professionallik, kompetentlik); auditorlik guruhi a'zolari o'rtasida ishlarning asosli taqsimlanganligiga; sifat standartlariga rioya qilinishi bo'yicha auditorlarning ishlari ustidan nazoratga;

audit tashkilotlaridagi ish sifatini ichki nazorat qilish siyosati va amallarining samaradorligi ustidan nazorat o'rnatilishiga asoslanadi.

Auditor ishi sifati dastlabki, joriy va keyingi nazoratni tashkil etish bilan ta'minlashi lozim. Amalda dastlabki nazorat auditorlar va auditorlik tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish va litsenziyalash bosqichida bajariladi. Joriy nazorat ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: alohida auditorlik tekshiruvlarini joriy nazorat qilish va auditni umumiy nazorat qilish.


Auditor ishi sifatini keyingi nazorati tashqi nazorat masalalari orqali amalga oshiriladi.

Auditor ishi sifatini nazorat qilishni tashkil etish yo'nalishlari quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi:

- ish sifatini nazorat mezonlari;
- nazorat yo'nalishlari;
- nazorat shakllari.

Auditor ishi sifatini nazorat mezonlari sifatida quyidagi 1-sxema talablarini keltirish mumkin.

1-sxema



Auditor ishi sifatini nazorat yo'nalishlariga alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish va umumiy sifat nazorati amallari kiradi.

Alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish auditorga qonun hujjatlarida belgilangan mustaqillik va erkinlik vakolati berilishi, auditorlar ishini joriy nazorati, auditor ishi standartlarga muvofiq bajarilishini tekshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Umumiy sifat nazorati mustaqillik, xizmatchilarga topshiriqlar, maslahatlar, kuzatuv, ishga yollash, kasbiy darajaning oshirilishi, xizmatda ko'tarilish, mijozlar maqbulligi va ular bilan munosabatlarning davomiyligi, qoida va jarayonlarni nazorat qilish kabi unsurlardan iborat.

Auditor ishi sifatini nazorat qilish uch shaklda tashkil etiladi.

*Birinchi shakl - asosiy auditorning o'z assistentlari ustidan nazorati:*

- asosiy auditor audit o'tkazilayotgan jarayonda ishlayotgan assistentlarni doimiy nazorat qilishi va ishga yo'naltirib turishi kerak;

-assistent asosiy auditoridan professional darajasi bilan farq qiluvchi shaxs;

-assistentdan farqli o'laroq asosiy auditor o'tkazilgan audit uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

- assistentlarga vazifa yuklatilganda ularning majburiyatlari va amallari borasida tegishli tarzda ko'rsatmalar berilishi kerak.

*Ikkinchi shakl - auditor ishi sifati ustidan auditorlik tashkilotining nazorati.*

Unda auditorlik tashkilotining rahbari doimiy va joriy davrda quyidagi masalalar yuzasidan nazorat olib boradi:

-o'tkaziladigan auditorlik tekshiruv rejasi va dasturining mijoz uchun asoslanganligini tekshirish va mulohaza yuritish;

-auditorlik tamoyillarining tashkiliy-axloqiy me'yorlariga qat'iy rioya qilinishini tekshirish;

-asosiy auditor tomonidan auditorlik xulosasi berilgandan keyin uning ishonchligini mijozga tasdiqlash uchun auditorlik tashkilotining boshqa auditori uni bepul takroriy qayta tekshiradi.

*Uchinchisi shakl - auditor ishi sifati ustidan tashqi nazorat tashkil etilishi.*

Tashqi nazorat davlat organi tomonidan o'tkazilib, bu nazorat amaldagi qonunga va me'yoriy hujjatlarga asosan davriy va majburiylik tamoyilida olib boriladi.

Auditor ishi sifatining tashqi nazoratining ob'ekti bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi:

audit tashkilotining ichki standartlari,

audit tashkiloti ish sifatining ichki nazorat tizimi,

alohida auditorlik tekshiruvlari.

Auditor ishi sifatini nazorati ob'ektlariga qarab tashqi nazorat masalalarini uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchidan, auditorlik tashkiloti ichki standartlarining mavjudligini va ularning amaldagi AMS bilan mosligini tekshiradi. Ushbu nazorat masalalari doirasiga quyidagilar kiradi:

- audit tashkilotida ishlab chiqilgan va qabul qilingan ichki standartlarni mavjudligini tekshirish;
- ichki standartlarning qo'yilgan talablarga mosligini tekshirish;
- ichki standartlarni o'z tarkibi va mazmuniga quyilgan talablarga mosligini tekshirish;
- ichki standartlarni tayyorlash tartibiga bo'lgan talablariga ichki standartlar mosligini tekshirish;
- ichki standart talablarini bajarilishiga qaratilgan tashkilotning ichki nazoratini tashkil etishga qo'yilgan talablarni mosligini tekshirish;
- qabul qilingan va ishlab chiqilgan ichki standartlarning amaldagi nizom va me'yoriy hujjatlar talablariga mosligini tekshirish.

Ikkinchidan, audit tashkilotida ish sifati ichki nazoratini tashkil etilishi va ularning samarali amal qilishini tekshirish masalalari. Ushbu nazorat masalalari doirasida quyidagilar amalga oshiriladi: audit tashkiloti ish sifati ichki nazorat tizimini tashkil etilishini tekshirish hamda audit tashkiloti ish sifati ichki nazorat tizimining samarali faoliyatini tekshirish.

Uchinchidan, alohida auditorlik tekshiruvlari sifatini tekshirish. Ushbu guruh nazorat masalalari doirasida quyidagi vositalar amalga oshiriladi: o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlarining audit standartlari talablariga mosligini tekshirish; audit jarayonini hujjatlashtirishga qo'yilgan talablar bajarilishini tekshirish; auditorlik tekshiruv davrida ish sifatini ichki nazorati amallarini realizatsiyasini tekshirish.

SHunday qilib, amaldagi me'yoriy hujjatlarda auditor ishi sifati nazoratini tashkil etishning turli shakllari va ularning qirralari bayon etiladi. Hozirgi kunda auditor ishi sifati nazoratining har bir shakldagi masalalarni amalga oshirish uslubiyoti, undagi amallarni etilib va bajarilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar hujjatlashtirish talab etiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2021 y. 25 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qaroriga ilova «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida Nizom».
3. Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov SH.I., Axmadjonov K.B. va boshqalar. Audit, Darslik. 1 jild. - T.: NORMA, 2008. – 320 b.
4. 5-son AMS «Auditor ishi sifatini nazorat qilish» O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 811-sonli 03.09.1999 yil ro'yxatga olingan 5,7-bandlari

5. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.
6. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
7. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(8), 37-40.
8. Turumova, D. A., & o'g'li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.
9. Turumova, D. A. (2023). О 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI-AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
10. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 60-62.
11. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 290-294.
12. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(22), 243-248.
13. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 6-9.
14. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 15-18.
15. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 34-37.
16. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 57-60.
17. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 136-140.
18. Yahyoyevna, O. F., & Alexandrovich, A. A. (2024). THE ROLE OF FINANCIAL MANAGEMENT IN IMPROVING THE FINANCIAL CONDITION OF ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 44-47.

19. Feruza, O. (2023). How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 12-17.
20. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2023). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 203-207.
21. Feruza, O. (2023). How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 12-17.
22. Yahyoyevna, O. F. (2023). FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION. *World Economics and Finance Bulletin*, 18, 72-77.
23. Obidova, F., & Umarova, Z. (2021). FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Экономика и социум*, (5-1), 376-379.
24. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2021). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNING O'RNI. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, 3(7), 25-29.
25. Obidova, F. Y. (2020). SMALL BUSINESS IN THE ECONOMY. *Economy and Society*, (2), 264.